

## **O‘ZBEKISTONDA GENDER TENGLIK MADANIYATI VA AYOL HUQUQLARI EVOLYUTSIYASI: TARIXIY-HUQUQIY TAHLIL**



**<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-152-156>**

**Xolmirzayeva Mushtariybegim Ergash qizi**

*Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti*

*Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti 3-kurs talabasi*

*+998 90 746 90 05*

**Ilmiy rahbar: Xaydarova R.A.**

*TDSHU katta o‘qituvchisi*

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada O‘zbekistonda gender tenglik madaniyati shakllanishining XIX asrdan XX asr oxirigacha bo‘lgan tarixiy-huquqiy tadriji tahlil qilinadi. Tadqiqotda Qo‘qon xonligidagi otinoyilar instituti, shariat qonunchiligidagi ayol huquqlari himoyasi (mahr, xulu‘) hamda jadid ma‘rifatparvarlarining ijtimoiy ong transformatsiyasidagi roli arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari asosida yoritilgan. Shuningdek, XX asrning ikkinchi yarmida ta‘lim tizimidagi islohotlar natijasida ayol pedagog kadrlar va rahbarlar qatlamining shakllanishi statistik ma‘lumotlar yordamida asoslangan.*

**Kalit so‘zlar:** Gender tenglik, otinoyilar, Uvaysiy, jadidlar, mahr, ijtimoiy ong transformatsiyasi, ayollar ta‘limi.

### **ABSTRACT**

*This article analyzes the historical and legal evolution of gender equality culture in Uzbekistan from the 19th century to the end of the 20th century. Based on archival documents and periodical press, the study highlights the institute of otinoyis in the Kokand Khanate, the protection of women's rights in Sharia law (mahr, khul'), and the role of Jadid enlighteners in the transformation of social consciousness. Furthermore, the formation of a stratum of female educators and leaders as a result of educational reforms in the second half of the 20th century is substantiated using statistical data.*

**Key words:** Gender equality, otinoyis, Uvaysiy, Jadids, mahr, transformation of social consciousness, women's education.

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье анализируется историко-правовая эволюция формирования культуры гендерного равенства в Узбекистане с XIX века до конца XX века. На основе архивных документов и материалов периодической печати освещаются институт отинойи в Кокандском ханстве, защита прав женщин в шариатском законодательстве (махр, хулу), а также роль джадидских просветителей в трансформации общественного сознания. Также на основе статистических данных обосновано формирование слоя женщин-педагогов и руководителей в результате реформ системы образования во второй половине XX века.*

**Ключевые слова:** Гендерное равенство, отинойи, Увайси, джадиды, махр, трансформация общественного сознания, женское образование.

Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri — jamiyatda gender tenglik madaniyatini yuksaltirish va xotin-qizlarning huquq hamda manfaatlarini qonuniy himoya qilishdir. Biroq, gender tenglikni ta‘minlashning normativ-huquqiy

asoslarini faqat zamonaviy qonunchilik doirasida tahlil qilish yetarli emas. Zero, har qanday huquqiy va ijtimoiy transformatsiya jarayoni o'zining mustahkam tarixiy ildizlariga ega bo'ladi. O'zbek xalqi tarixida ayollarning ijtimoiy-huquqiy maqomi turli davrlarda o'ziga xos evolyutsion bosqichlarni bosib o'tgan. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston o'lkasidagi ayollar huquqlari masalasi shariat me'yorlari, mahalliy an'analar va jadid ma'rifatparvarlarining islohotchilik harakatlari kesishgan nuqtada shakllandi. Shariat qonunlaridagi mahr va xulu' kabi huquqiy institutlar ayollarning mulkiy va oilaviy himoyasini ta'minlagan bo'lsa, Jahon Otin Uvaysiy kabi simvolik shaxslar va otinoyilar instituti ayollar ma'rifati va yetakchiligining norasmiy mexanizmlarini yaratib berdi. O'rta Osiyoda gender munosabatlari asosan an'anaviy tizim asosida saqlangan. Ayollar jamiyatda asosan oilaviy vazifalarga e'tibor qaratishgan. Ayollarning rollari ko'proq oilada va mahalliy hayotda bo'lgan, ammo ular jamiyatning ma'naviy sohalarida ham hissa qo'shgan. Bunda musulmonlik qadriyatlari ta'sirida ayollar oilada, ijtimoiy tarbiyada muhim o'rin tutishgan<sup>1</sup>.

XIX asr Qo'qon xonligida ayollar huquqlari va ularning jamiyatdagi mavqei faqat diniy qonunlar bilan emas, balki "Otinoyilar" instituti orqali ham tartibga solingan. Otinoyilar nafaqat ta'lim beruvchi, balki ayollar o'rtasida norasmiy huquqiy maslahatchi, oilaviy nizolarni hal qiluvchi va ma'naviy rahbar sifatida ijtimoiy nazorat funksiyasini bajarganlar. Bu esa o'sha davr jamiyatida ayollar yetakchiligi mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Uvaysiy (1780-1845) o'z davrida qizlar ta'limini tizimlashtirish orqali ayollarning intellektual huquqlarini himoya qilgan. Uning maktablarida o'quv dasturi faqat diniy fanlar bilan cheklanib qolmay, adabiyot, tarix va etiket (odob-axloq) kabi dunyoviy elementlarni ham o'z ichiga olgan ijtimoiy ong transformatsiyasining ilk bosqichlari edi. XIX asrdagi ushbu an'anaviy ta'lim tizimi XX asr boshidagi Jadidchilik harakati uchun poydevor vazifasini o'tadi. Jadidlar xotin-qizlar huquqlarini zamonaviy huquqiy doiraga olib chiqishda aynan mana shu tarixiy pretsedentlarga tayanganlar<sup>2</sup>. Bugungi kundagi gender tenglik siyosati esa ana shu uzoq yillik madaniy-tarixiy evolyutsiyaning mantiqiy davomidir<sup>3</sup>.

1870–1917-yillarda "Turkiston viloyatining gazetisi" kabi nashrlarda ayollarning jamiyatdagi o'rni haqida bahs-munozaralar yuritilgan. "Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1918-1919 yillardagi sonlarida ayollar huquqlari va ta'limi masalasi o'tkir tanqid ostiga olingan: *"Mehnatkashlar tovushi" gazetasining 1918-yil 24-dekabrda sonida shunday so'zlarni o'qiydiz: "Yigitlarni yetishdirguvchi, jamiyati bashariyani tarbiya etguvchi xotun-qizlarimizni ta'lim va tarbiyadan mahrum etsak, alarda bo'lg'on iste'dod va o'ngunliklardan foydalanmasak, bizning holimiz ne bo'lajak? Turkistonda xotun-qizlarga maxsus na bir maktab, na*

<sup>1</sup> <https://cdn.uz.uz/2025/04/25/11/01/qjxNCYtt4dK6WYpuioNDDbEoMViw8ZvP.pdf>

<sup>2</sup> Precedent-Oldingi tadqiqot, tajriba yoki tarixiy holat keyingi ilmiy xulosalar uchun asos bo'ladi. Ayollar uchun maktab ochilishi — keyinchalik boshqa hududlarda ham shunday maktablar ochilishiga precedent bo'lgan.

<sup>3</sup> Qushbaqova U.U. Girls' education in the Kokand Khanate in the 19th century and the schools of Jahon Otin // Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions. International online conference. – 2025. – Dec. 17. – P. 206-210.

*bir jamiyat va na bir qiroatxona bor. Bizning Turkistonda xotun-qiz dunyosi eng tuban darajada bo‘lub, butun huquqlaridan mahrum etilib, to‘rt devor orasida qamalub qo‘yulg‘on mahbusa kabi. Bashariyat dunyosida yashamoq uchun barcha a‘zoning salomat bo‘lushi shartdir. Shunday bo‘lsa biz o‘n milyunli turkistonliklarning yarmidan ko‘bini tashkil etgan xotun-qizlarimizni ta‘lim va tarbiyadan, ulum va maorifdan mahrum etib, alarg‘a ong va fikr bermasak – o‘qutmasak bizning holimiz ne bo‘lur?”*

*Hoji Muinning “Yoshlarimiz va qizlarimiz tarbiyasi” maqolasida qizlarni o‘qitish masalasi ko‘tariladi: “Turkiston markazi bo‘lg‘on Toshkandda xalq dorulfununining ibtidoiy qismi nomi ila o‘nlab maktablar bilan dorulmuallimin kursi ochildi, ammo bular qatorinda ko‘bdan beri to‘rt ko‘z ila kutub turdigimiz bir dona qizlar maktabi ochilmadi, loaqal dorulfunun sho‘rosinda kelar zamonda shunday maktablar ocharg‘a tashabbus etajagi haqinda biror xabar eshitilmadi” (“Mehnatkashlar tovushi” gazetasi. 1918-yil 28-iyun).*

*Keyingi yillarda qizlar uchun maktablar ochish boshlangan. “Mehnatkashlar tovushi” gazetasining 1919-yil 28-fevraldagi 62-sonida bunday yoziladi: “O‘g‘illarimiz bilan barobar, xotun-qizlarimizni ham o‘qutmog‘imiz farz va lozimdir. Muni hech bir turk bolasi va hech bir musulmon farzandi inkor qilmasa kerak. Lekin taassuf qilamizkim, ko‘b zamondan beri Payg‘ambarimizning (s.a.v.) xotun-qizlarni o‘qutmoq to‘g‘risindagi buyruqlarini xotiramizdan chiqorib, xotun-qizlarni yaxshi o‘qutmag‘onimiz uchun hozirda qizlar uchun lozimincham maktablar ochmoqg‘a muallimalar yo‘qlig‘idan imkon topa olmaymiz. Ruslardan choqirsak, til bilmaylar. O‘zimizda muallimalar yo‘q. Shuning uchun 10–15 ming ma‘suma qizlarimiz din va dunyolari uchun zarur bo‘lg‘on ilm va hunardan mahrum bo‘lub qolmoqda. Turkiston maorif komissariati hozirligidagi turk sho‘basi mana shul holg‘a e‘tiboran eski Toshkandda 7 oyliq bir muallimalar kursi ochmoqg‘a qaror berdi. Bu fursatda, ya‘ni 7 oy o‘tub tamom qilg‘on xotun-qizlarning qo‘llarig‘a muallimalik shahodatnomasi berilib, har yerda qizlar maktabi ochilib, shul maktablarga muallimalik etarlar”<sup>4</sup>.*

*Tarixiy manbalar va arxiv materiallari shuni ko‘rsatadiki, XIX asr oxiri va XX asr boshida Turkistonda ayollar huquqlari mahr va xulu‘ kabi huquqiy institutlar orqali himoyalangan. Xususan, “Turkiston viloyatining gazetasi” sahifalarida ayollarning jamiyatdagi o‘rniga oid bahs-munozaralarning yuritilishi, o‘sha davridayoq gender tenglik madaniyati shakllana boshlaganidan dalolat beradi.” Manbada keltirilishicha, o‘sha davrda oilaviy nizolarni hal qilishda shariat qonunlari asosiy huquqiy mezon bo‘lgan.*

*Taloq: Er kishi nikoh shartnomasini bekor qilish huquqiga ega edi, biroq bu jarayon iqtisodiy majburiyatlar bilan bog‘langan. Agar er sababsiz taloq qo‘ysa, u xotiniga mahrni (to‘y paytida kelishilgan sovg‘a yoki mulk) to‘liq qaytarishi va to‘y xarajatlarini qoplashi shart edi. Xulu‘: Ayol kishining ham ajrashish tashabbusi bilan chiqish huquqi mavjud bo‘lib, bu jarayon "xulu'" deb atalgan. Agar ayol sababsiz ajrashishni talab qilsa, u mahr huquqidan mahrum bo‘lgan. Bu fakt o‘sha*

<sup>4</sup> Xalilova Z. Ma‘rifatdan mahrum ma‘sumlar // Tafakkur. – 2023. – №2. – B. 68-75.

davr huquqiy tizimida ayolning ham o‘z irodasini bildirish imkoniyati bo‘lganini isbotlaydi. Mahr instituti bu nafaqat an‘ana, balki ayolning iqtisodiy xavfsizligini ta‘minlovchi huquqiy kafolat bo‘lgan. Ajrashish holatida ayolning moddiy ta‘minoti mahr orqali himoyalangan. Garchi Chor Rossiyasi ma‘murlari musulmon ayollarni huquqsiz deb hisoblagan bo‘lsa-da, aslida islomiy qonunchilikda ayolning oiladagi mavqei diniy tomondan himoya qilingan. Islom dini o‘z ayollariga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lgan erkaklarni insonlarning eng yaxshisi qatoriga qo‘shadi. Bu xususda hadisda: “Sizlarning ichingizda eng yaxshingiz o‘z ahli ayoliga nisbatan yaxshi munosabatda bo‘lganingizdir”, – deya marhamat qilinadi (Imom Termiziy rivoyati)<sup>5</sup>.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda O‘zbekistonda erkak kadrlar yetishmovchiligi sababli ayollarning ijtimoiy mehnatga, xususan, ta‘lim sohasiga jalb etilishi keskinlashdi. 1946-1947 yillarda shaharlarda ayol o‘qituvchilar soni 4439 nafar bo‘lgan bo‘lsa, 1958-1959 yillarga kelib bu ko‘rsatkich 12468 nafarga yetdi (deyarli 3 barobar o‘shish). Qishloqlarda ham o‘shish yuqori bo‘lib, ayol o‘qituvchilar soni 10269 nafardan 18032 nafarga ko‘paydi. Bu gender tenglikning nafaqat shaharlarda, balki chekka hududlarda ham tizimli ravishda ta‘minlanganini ko‘rsatadi. 1954-yilda Qo‘qon shahrida Ayollar pedagogika instituti tashkil etilishi muhim tarixiy burilish bo‘ldi. Bu institutga dastlabki yiliyoq 200 nafar xotin-qiz qabul qilindi. 1954-yil 19-iyuldagi qaror bilan o‘g‘il va qiz bolalarning birgalikda o‘qishi joriy etildi. Bu “gender chegaralari”ni buzishda va ta‘lim sifatini oshirishda tub burilish yasadi. Ayollarning nafaqat o‘qituvchi, balki maktab direktori, mudir kabi rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi ijtimoiy ong transformatsiyasining amaliy ifodasi bo‘ldi. Masalan, Farg‘ona viloyati Xalq ta‘limi bo‘limlarida ayol rahbarlar qatlami paydo bo‘la boshladi<sup>6</sup>.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan gender siyosati — XIX asrning ma‘rifiy an‘analari, jadidlar davrining huquqiy chorlovlari va XX asrning tizimli ta‘lim islohotlari natijasida shakllangan tarixiy tajribaning mantiqiy davomidir. Ushbu tarixiy evolyutsiyani o‘rganish hozirgi kundagi ijtimoiy ong transformatsiyasini va gender tenglik madaniyatini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Nargizaxon Abduqaxxorovna, S. (2025). XX asrning 40–90-yillarida O‘zbekiston ta‘lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi. MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA Xalqaro Ilmiy Jurnali, 122–126. <https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.143>

<sup>5</sup>[https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F\\_15-sentabr.pdf](https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F_15-sentabr.pdf)

<sup>6</sup> Nargizaxon Abduqaxxorovna, S. (2025). XX asrning 40–90-yillarida O‘zbekiston ta‘lim tizimida gender tenglik masalalari tarixi. MARKAZIY OSIYODA JAMIYAT, GENDER VA OILA Xalqaro Ilmiy Jurnali, 122–126. <https://doi.org/10.65185/mojgo.vi.143>

2. Xalilova Z. Ma’rifatdan mahrum ma’sumlar // Tafakkur. – 2023. – №2. – B. 68-75.
3. Qushbaqova U.U. Girls’ education in the Kokand Khanate in the 19th century and the schools of Jahon Otin // Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions. International online conference. – 2025. – Dec. 17. – P. 206-210.
4. <https://cdn.uza.uz/2025/04/25/11/01/qjxNCYtt4dK6WYpuioNDDbEoMViw8ZvP.pdf>
5. [https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F\\_15-sentabr.pdf](https://api.moiti.uz/media/book/%D0%9A%D0%BE%D0%BD%D1%84%D0%B5%D1%80%D0%B5%D0%BD%D1%86%D0%B8%D1%8F_15-sentabr.pdf)